



Kamchatka o'lkasiga ishga
mehnat va kadr
potensialini rivojlantirish
vazirligi

Cho'ntak ma'lumotnomasi

Kamchatka o'lkasiga ishga
joylashish maqsadida kelgan chet
el fuqarolari uchun



Foydali
ma'lumotlar



Rossiyaga
borish



Rossiyada ishga
joylashish



Rossiyada
yashash

► (01.09.2020 yil holatiga ko'ra)

1. Rossiya ga borish	
Rossiya ga borishga tayyorgarlik ko'rish	3
Muhojirlik kartasini rasmiylashtirish	5
Muhojirlik hisobi (qaydi) ga qo'yish	6
2. Rossiya da ishga joylashish	
Ishlash uchun patent	8
Rus tili, Rossiya Federatsiyasi tarixi va qonunchilik asoslaridan sinovdan o'tish	10
Tibbiy xulosa	11
Ishga kirish	12
3. Rossiya da yashash	
Turar joy izlash va ijara olish	14
Tibbiy yordam	15
4. Rossiya axloq madaniyatি	16
5. Foydali ma'lumotlar	18

Hurmatli o'quvchi!

Ushbu cho'ntak ma'lumotnomasi Sizga Rossiya muhojirlik
qonunchiligi, Rossiya da yashash va mehnat qilish qoidalari va o'ziga
xos xususiyatlarini bilib olishda ko'maklashadi.

Maslahatlar va ogohlantirishlarga e'tibor berishingizni so'raymiz
– ular Sizga ko'pgina tavakkalchiliklardan xalos bo'lishingizga va
qonunlarni buzmasligingizga, o'z majburiyatlariningizni bilishingizga
va o'z huquqlariningizni himoya qilishingizga ko'maklashadi.

Omad Sizga yor bo'lsin!

Rossiyaga borish

Rossiyaga borishga tayyorgarlik ko'rish



Rossiyaga borish uchun oldindan tayyorgarlik ko'rish lozim.
Muammolarga duch kelmasligingiz uchun Sizga quyidagi maslahatlarni beramiz:

Rossiya qonunchiligin o'rganib chiqing,
chunki chet el fuqarolariga qo'yiladigan talablar o'zgarishi mumkin.
Rossiya hududiga vizasiz tartibda kirish huquqiga ega bo'lgan MDH mamlakatlari
fuqarolari Rossiya Federatsiyasi hududida ishslash uchun patentni
rasmiylashtirmasdan **90** kundan ortiq bo'lishlari mumkin.

Kamchatka o'lkasida muhojirlik masalalari bilan Rossiya IIV Kamchatka
o'lkasi Boshqarmasining muhojirlik masalalari boshqarmasi shug'ullanadi.

Sizga Rossiyaga kirish taqiqlanganmaganligini tekshirib ko'ring:
Rossiya Federatsiyasida qonuniy bo'lish muddatini o'tkazib yuborgan shaxslarga
nisbatan mamlakatdan majburiy chiqarib yuborishga qadar javobgarlik ko'zda
tutilgan.



Maslahat!

Rossiyaga kirish taqiqlangan yoki taqiqlanganmaganligini
Rossiya IIV Muhojirlik masalalari Bosh boshqarmasi rasmiy
saytining **сервис.губм.мвд.рф** servisidan tekshirib ko'rishingiz
mumkin.

Rus tilini bilishingiz lozim. Ishlash uchun patentni rasmiylashtirishda rus tili,
Rossiya Federatsiyasi tarixi va qonunchilik asoslaridan majburiy sinovdan
o'tishga tayyor bo'lishingiz lozim.

Imtihonga tayyorgarlik ko'rish uchun ham
o'z vataningizda va ham Rossiya hududida
rus tili kurslarida o'qishingiz mumkin.



Kamchatka o'lkasida Siz quyidagi manzilda joylashgan

Muhojirlarni ijtimoiy adaptatsiya qilish markazida
bepul mashg'ulotlarga qatnashishingiz mumkin:
Petropavlovsk-Kamchatskiy sh., Maqsutov k., 42,
Mashg'ulotlarga yozilish uchun telefon: 8 (415-2) 42-62-85.

Rossiyaga borish

Rossiyaga borishga tayyorgarlik ko'rish



Tibbiy sug'urta polisini rasmiylashtirish:

Kamchatka o'lkasi hududida Siz tibbiy sug'urta polisini istalgan sug'urta tashkilotidan olishingiz mumkin.

Agar Sizda Rossiya Federatsiyasi hududida vaqtinchalik yashash ijozatnomangiz bo'lsa, tibbiy polis bepul rasmiylashtiriladi, vaqtinchalik yashash ijozatnomangiz bo'limgan taqdirda polis pullik asosda rasmiylashtiriladi.

Sizga ko'maklashishi mumkin bo'lgan tashkilotlar bilan bog'lanish ma'lumotlarini bilib oling:

Agar muammoli vaziyatlarga yoki huquqlarinigz buzilishiga duch kelsangiz, Siz borayotgan mintaqada aynan kimga murojaat etish lozimligini bilishingiz lozim. Bular Rossiya Federatsiyasining davlat organlari, mamlakatingizning Rossiyadagi namoyanadalar (masalan, konsul muassasalari yoki muhojirlik xizmatlari vakolatxonalar) hamda jamiyat tashkilotlari bo'lishi mumkin.

Bunday tashkilotlardan ayrimlarining manzillari va telefon raqamlarini "Foydali ma'lumotlar" bo'limidan topishingiz mumkin.

Rossiyada Sizni qabul qilib, turar joy beradigan tomon kimligini bilib oling:

Muhim!

RF ga kelgan chet el fuqarosi chegaradan o'tgan sanasidan so'ng **7 ish kuni** davomida kelgan joyida o'zini muhojirlik hisobiga qo'yishi (ro'yxatdan o'tishi) lozim.

Sizni qabul qiluvchi tomonni oldindan topib qo'yaningiz yaxshi.

Maslahat!

Bo'sh ishjoylari bilan tanishib chiqing va o'zingizga mos keluvchi ish toping:

Siz shu jumladan "**Rossiyada ishlash**" Umumrossiya bo'sh ish joylari bazasi" (www.trudvsem.ru) internet resursidagi bo'sh ish joylari bilan tanishib, o'z ma'lumotingiz darajasi, ish tajribangiz va malakalaringizga muvofiq keladigan ishni oldindan tanlab olishingiz mumkin.

Kamchatka o'lkasida o'zingizga muvofiq keluvchi ish topish maqsadida Siz o'lka markazida joylashgan **Muhojirlarni ijtimoiy adaptatsiya qilish markaziga murojaat** etishingiz mumkin (tel. **8(415-2)42-62-85**).

 O'zingizda yetarli darajada pul mablag'laringiz bo'lsin. Ular Sizga hujjatlaringizni rasmiylashtirishda, turar joy ijaraga olishda, ovqatlanish va transportda va boshqa xaratatlarga sarflash uchun kerak bo'ladi.

Rossiyaga borish

Muhojirlik kartasini rasmiylashtirish



Muhojirlik kartasini muhojir o'zi qo'li bilan rus tilida to'ldiradi yoki uni chegara nazorati xodimi to'ldiradi. Muhojirlik kartasini diqqat bilan to'ldirish lozim, unda tuzatishlar va xatolar bo'lmasligi lozim.

Muhim!

Rossiyaga **kelish maqsadiningizni** to'g'ri ko'rsating va agar Siz ishga joylashish maqsadida kelgan bo'lsangiz, muhojirlik kartasida "ishlash" so'zining tagiga chizing, aks holda Siz ishga joylasha olmaysiz.

Diqqat!

Muhojirlik kartasi – muhim hujjat!

Uni Rossiyada bo'lish muddatingiz davomida pasportingiz bilan birga saqlang.

Maslahat!

Kirish chiptasi – Sizning Rossiya hududiga kiganingizni tasdiqlovchi yo'l hujjatidir. Iloji boricha chiptalar va o'tirish talonlaringizni o'zingizda saqlang, ular muhojirlik kartangizni yo'qotib qo'ygan taqdiringizda Sizning Rossiya hududiga kiganingizni tasdiqlaydt.



Muhojirlik kartasini yo'qotish:

Agar Siz muhojirlik kartangizni yo'qotib qo'ygan bo'lsangiz, darhol (**3 ish kuni davomida**) pasportingiz va Rossiyaga kelish chiptangiz bilan Rossiya IIV Kamchatka o'lkasi Boshqarmasining Muhojirlik masalalari boshqarmasiga murojaat eting. Sizning hujjatlaringiz tekshirilganidan so'ng Sizga muhojirlik kartasi dublikatini bepul berishlari shart. **Qalbaki muhojirlik kartasini berish qonun bilan ta'qib qilinadi.**



Rossiyaga borish

Muhajirlik hisobiga turish



Rossiyaga kelgach har bir xorijiy fuqaro chegaradan o'tgan sanasidan so'ng 7 ish kuni davomida kelgan joyida o'zini muhajirlik hisobiga qo'yishi (ro'yxatdan o'tishi) shart.

Yevroсио iqtisодиy ittifoqiga (YeOII) kiruvchi mamlakatlar:

- Armaniston, Belarus, Qozog'iston va Qирг'изстан - **30** kun;
- Тоjikiston fuqarolari uchun - **15** kun.

Odatda, Sizni qabul qilib, turar joy bergen tomon Sizni muhajirlik hisobiga qo'yadi.

Qabul qiluvchi tomon

(o'z manzilida chet el fuqarosini ro'yxatga oluvchi kishi yoki tashkilot)
quyidagilar bo'lishi mumkin:

- siz ishlamoqchi bo'lgan mintaqada doimiy ro'yxatga olingan Rossiya fuqarosi;
- rossiyada turar joy egasi bo'lgan chet el fuqarosi;
- yuridik shaxs (ish beruvchi, mehmonxona, notijorat tashkilot va boshqalar).

Siz o'zingiz yashab ishlamoqchi bo'lgan mintaqada ro'yxatdan o'tishingiz lozim. **Qalbaki ro'yxatdan o'tish uchun jinoiy javobgarlik ko'zda tutiladi, shuning uchun ro'yxatga olingan joyingizda yashashingiz zarur.**



Rossiyaga borish

Muhajirlik hisobiga qo'yish



Qanday qilib muhajirlik hisobiga qo'yish mumkin:

Chet el fuqarosining bo'lish joyiga kelganligi haqida xabarnoma blankasini to'ldiring

(xabarnoma blankasini Siz Rossiya IIV Kamchatka o'lkasi Boshqarmasining Muhajirlik masalalari boshqarmasidan, Ko'pfunksiyali davlat xizmatlari markazi (KFM) dan, "Rossiya pochtasi" bo'linmasidan, Muhajirlarni ijtimoiy adaptatsiya qilish markazidan bepul olishingiz mumkin, u yerda blankani to'ldirishda Sizga bepul yordam ko'rsatishadi).

Xabarnoma blankasiga muhajirlik kartasining barcha sahifalari nusxasini, hamda qabul qiluvchi tomon pasporti nusxasi va turar joyga egalik qilish hujjati nusxasini ilova qiling va bu hujjatlarning asl nusxalarini taqdim eting.

Diqqat!

Ro'yxatga olish chegaradan o'tish paytidan boshlab ko'pi bilan **90 sutkaga** rasmiylashtiriladi, lekin Rossiyada ishslash huquqini bermaydi.

Muhim!

Muhajirlik hisobi muddatini:

- YeOII mamlakati fuqarolari uchun mehnat shartnomasining amal qilish muddatiga (bunda YeOII mamlakatining mehnat qiluvchi fuqarosi oila a'zolari o'z muhajirlik hisoblari muddatini uning mehnat yoki fuqarolik-huquqiy shartnomasi asosida uzaytiradilar);
- MDH mamlakatlari fuqarolari uchun puli to'langan ishslash uchun patentning amal qilish muddatiga uzaytirib borish lozim.

Maslahat!



Rasmiylashtirilgan muhajirlik hisobiga qo'yish haqida xabarnomadan kseroks nusxa ko'chirib oling va uni o'zingiz bilan saqlab yuring – bu ushbu hujjat yo'qolganda uni qayta tiklashda yordam beradi.

Rossiyada ishga joylashish Ishlash uchun patent



Kamchatka o'lkasida ham yuridik shaxslarda (tashkilot yoki yakka tartibdag'i tadbirdor) va ham jismoniy shaxslarda (masalan xonadonlar egalari va boshqalar) ishga joylashish uchun MDH mamlakatlari fuqarolari ishlash uchun patent olishlari lozim.

Kamchatka o'lkasida patent Rossiya IIV Kamchatka o'lkasi Boshqarmasining Muhojirlik masalalari boshqarmasi mehnat muhojirligi bo'limida rasmiylashtiriladi.

Muhim!

Patent Rossiyaga kirganingizdan so'ng 30 kun ichida rasmiylashtiriladi.

Siz o'zingiz tanlagan va Rossiyaning patent olingan mintaqasida amal qiluvchi patentda ko'rsatgan faqat bir mutaxassislik (kasb) bo'yicha ishlashingiz mumkin.

Esda tuting:

Rossiyada faqat 18 yoshga to'lgan kishilar ishga joylashishi va patent olishlari mumkin xolos!

Muhojirlarga patentni rasmiylashtirishda chet el fuqarolariga patentlarni rasmiylashtirish va berishga oid davlat xizmatlarini ko'rsatishga vakolatlangan tashkilot – **Rossiya IIV “Pasport-viza xizmati” FDUK pullik** asosda ko'maklashadi.

Kamchatka o'lkasida bunday vakolatlangan tashkilot quyidagi manzilda joylashgan: **Petropavlovsk-Kamchatskiy sh., Maqsutov k., 42 uy.
tel. (4152) 42-80-15,42-80-17.**

Rossiyada ishga joylashish

Ishlash uchun patent



Quyidagi maslahatlardan foydalaning:

- Agar Siz yordam so'rab vositachi tashkilotga murojaat etgan bo'lsangiz albatta xizmat ko'rsatish haqida shartnomalarni tuzib oling.
- Vositachilik xizmatlariga haq to'lashda albatta Sizning mablag'laringiz vositachi tashkilot hisobiga tushganligini tasdiqlovchi cheklarni talab qiling.
- Vositachilarga murojaat etgan taqdiringizda ham Siz hamma amaliyotlardan SHAXSAN o'zingiz o'tishingiz lozim! Bunday amaliyotlarga tibbiy ko'rik va daktiloskopik ro'yxatdan o'tish (barmoq izlarini olish), rasmga tushish, rus tili, Rossiya tarixi va qonunchilik asoslaridan sinov topshirish kiradi.

Ishlash uchun patentga haq to'lash:

Patentdan foydalanganligingiz uchun Siz Rossiyada ishлаshingiz va bo'lishingizning har bir keyingi oyi uchun belgilangan miqdordagi soliq to'lovini oldindan to'lab borishingiz lozim bo'ladi.

Diqqat!

Belgilangan miqdordagi soliq to'lovlarini oldindan to'lash
Diqqat! Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 227.1 muddasi bilan tartibga solinadi.

Patent olganingizdan so'ng 2 oy davomida Siz Rossiya IIV Kamchatka o'lkasi Boshqarmasining Muhojirlik masalalari boshqarmasiga ish beruvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomangiz nusxasini taqdim etishingiz lozim.

Patentning amal qilish muddati tugaganidan so'ng Siz Rossiya hududidan chiqib ketishingiz yoki patentning amal qilish muddatidan oldin **10 ish kunidan kech bo'lмаган мурдатда** tegishli ariza berib, patentni qaytadan rasmiylashtirishingiz lozim.

Rossiyada ishga joylashish

Rus tili, Rossiya Federatsiyasi tarixi va qonunchilik asoslaridan sinov



Rus tili, Rossiya tarixi va qonunchilik asoslaridan sinovdan o'tish chet el fuqarolari uchun majburiy bo'lib, ishlash uchun patent rasmiylashtirish tartibiga kiradi.

Sinovdan o'tganliginingiz maxsus sertifikat yoki imtihondan o'tganligingiz haqida hujjat bilan tasdiqlanadi.

Bu hujjat Sizning qo'lingizga beriladi va 5 yil davomida amal qiladi.



Rus tili sinovi 5 qismdan iborat bo'ladi: o'qish, yozuv, leksika va grammatika, audirovaniye (xabarni eshitish va aytib berish) va og'zaki nutq.

Siz sinov topshirmsiz, agar:

- Sizda 1991 yil 1 sentyabriga qadar olingen SSSR o'quv yurtini tugatganligingiz haqida diplomingiz bo'lsa;
- Sizda istalgan MDH mamlakatida rus tili kurslaridan o'tib o'quv yurtini tugatganlanligingiz haqida diplomingiz, uning notarial tasdiqlangan rus tiliga tarjimasi va ushbu diplomning Rossiya ta'lim standartlariga muvofiq kelishi haqida guvohnomangiz bo'lsa;
- Siz Belarus Respublikasi chet el fuqarosi bo'lsangiz.

Rossiyada ishga joylashish

Tibbiy xulosa



Patent olish uchun tibbiy ko'rikdan o'tishingiz lozim. Tibbiy ko'rik chet el fuqarosida VICH, sil, COVID-19, jinsiy yo'l bilan o'tuvchi ba'zi kasalliklari yo'qligini tasdiqlash uchun o'tkaziladi.

Tibbiy tekshiruv chet el fuqarosi ishlamoqchi bo'lgan mintaqadagi maxsus tibbiyot muassasasida o'tkaziladi.

Tibbiy komissiyadan o'tish – pullik xizmatdir.

Kamchatka o'lkasida tibbiy ko'rikdan o'tish uchun Siz quyidagi muassasalarga murojaat etishingiz mumkin:

-  “Kamchatka o'lkasi SPID va yuqumli kasalliklar oldini olish va ular bilan kurashish markazi” DSSM
(Petropavlovsk-Kamchatskiy sh., Oktyabr 50 yilligi k., 1/2 uy);
-  “Kamchatka o'lkasi narkologiya dispanseri” DSSM
(Petropavlovsk-Kamchatskiy sh., Oktyabr 50 yilligi xiyob., 2 uy);
-  “Kamchatka o'lkasi sil kasalligiga qarshi kurash dispanseri” DSSM
(Petropavlovsk-Kamchatskiy sh., Ordjonikidze k., 9 uy);
-  “Kamchatka o'lkasi teri-tanosil kasalliklari dispanseri” DSSM
(Petropavlovsk-Kamchatskiy sh., Kavkazskaya k., 26 uy).



Rossiyada ishga joylashish

Ishga kirish



Rossiyada noqonuniy ishlash – jiddiy huquqbazarlikdir.

O'z huquq va majburiyatlarining bilishingiz va o'zingizni kerakmas xatarlardan himoya qila olishni bilishingiz lozim.

Quyidagi oddiy maslahatlar Sizga ishga joylashishda yordam beradi:

Qonuniy ravishda ishlang: ishlash uchun patent ham yuridik shaxsda va ham jismoniy shaxsda ishga joylashish huquqini beradi, lekin Sizning ish beruvchi bilan mehnat munosabatlaringiz albatta mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy shartnomaga bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Diqqat!

Ish beruvchi 3 ish kundan kech bo'lмаган muddat davomida Rossiya IIV Kamchatka o'lkasi Boshqarmasining Muhojirlik masalalari boshqarmasiga chet el fuqarosi bilan mehnat munosabatlari haqidagi shartnomaga tuzilganligi va tugatilganligi (bekor qilinganligi) haqida xabar berishi lozim.

O'zish beruvchingizni biling! Siz o'zingiz ishlaydigan shirkat nomi va manzili, bevosita rahbaringiz ma'lumotlari (ismi, familiyasi va telefoni) ni bilishingiz SHART;

Ish beruvchingiz bilan shartnoma tuzib oling: mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzish Sizga o'z huquqlaringizni himoya qilishda (ish haqingizni o'z vaqtida olish, mehnat ruxsatiga, dam olish kuniga chiqish va mehnatga layoqatsizlik varaqalariga haq olish huquqiga ega bo'lish), ijtimoiy kafolatlarga ega bo'lishda, haq to'lanmaydigan vaqtidan tashqari ishlardan qutulishda, o'z majburiyatlarining aniq bilishingizda va juda bo'lмагanda, Siz aynan qayerda, qachon va kimning qo'lida ishlaganingizni isbotlashda yordam beradi.

Diqqat!

Ish beruvchi Siz bilan shartnoma tuzishi va Sizga shu shartnomadan bir nusxa berishi SHART!

Maslahat:

Agar mehnat munosabatlari yozma shartnoma tuzmasdan og'zaki bitim orqali rasmiylashtirilgan bo'lsa, bunday holatda ishchi oldindan bila turib huquqiy jihatdan tengsiz va xavfli vaziyatga tushib qoladi. Ish beruvchi bilan har doim iloji boricha yozma bitim tuzib oling.

Rossiyada ishga joylashish

Ishga kirish



Ish haqingiz miqdori va uni to'lash shartlarini aniq kelishib oling: Sizga aynan qanday ish uchun qancha pul to'lanishi lozimligini bilishingiz lozim.

Siz imzo qo'yayotgan barcha hujjatlarni diqqat bilan o'qib chiqing, Sizga ulardan nusxa berishlarini talab qiling: agar Sizga biror narsani (shartnoma, tabel, tilxat va boshqalar) imzolashni taklif etsalar, Siz imzo qo'yayotgan hujjatdagi shartlarga rozi bo'lishingiz lozim.

Ish beruvchiga o'z hujjatlaringizni bermang: Sizdan tashqari boshqa hech kim Sizning pasportingiz, ishslash uchun ijozatnomangiz, sug'urtangiz, mehnat shartnomasi nusxasi va boshqa hujjatlaringizni saqlashi, hamda Sizning harakatlanish erkinligingizni cheklashi, telefoningiz va boshqa narsalaringizni tortib olishi mumkin emas. Pasportni olib qo'yish va harakatlanish erkinligini cheklash jiddiy jinoyatdir: agar shunday holatlarga duch kelsangiz politsiyaga murojaat eting!

Muhim!

Rossiyada qarzga ishlatish (ish beruvchining o'z ishchilarini boshqa shaxslar manfaatlarida mehnat munosabatlарини rasmiylashtirmasdan turib boshqa tashkilotlarga ishlashga jo'natishi) taqilqanadi.

Diqqat!

Siz ish haqi to'lanmaganidan yoki Siz bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganidan 3 oy o'tguniga qadar sudga murojaat etish huquqiga egasiz. Ehtiyyot bo'ling va zarur hollarda o'z vaqtida sudga murojaat eting (RF MK 392 m.).

Maslahat:

Siz shartlari bilan rozi bo'lмаган шартномани имзоламанг.

* * *

Agar Siz kerakli hujjatlarni rasmiylashtirgan holda ishga joylashgan bo'lsangiz va Siz uzoq vaqt davomida Rossiyada yashashingiz lozim bo'lsa, Siz turar joy izlash, tibbiy yordam olish, hujjatlarni tekshirish zarurati va boshqa shunga o'xshash murakkab vaziyatlarga duch kelishingiz mumkin. Bunda Sizga bizning tavsiyalarimiz yordam beradi.

Rossiyada yashash

Turar joy izlash va ijaraga olish



Turar joy izlab Siz xonadonlar yoki xonalar ijaraga berilishi haqida ko'plab reklama e'lонларини ко'расиз. Bunda mustaqil ravishda turar joy topish ancha murakkab va muammoli bo'ladi.

Ko'chmas mulk agentliklari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar.

Ishonchiliroq bo'lishi uchun pulli xizmatlar ko'rsatuvchi (taxminan 5000 dan 7000 rublgacha) ko'chmas mulk agentliklari xizmatlaridan foydalanishingiz mumkin. Biroq, buning ishonchliligi shundaki, ushu agentliklar o'z idoralariga ega bo'lgan holda ochiq tarzda ishslashadi. Bunday agentliklar Siz bilan xizmatlar ko'rsatish haqida alohida shartnoma tuzadi va Sizga butun mos keluvchi variantlarni ishslash davrida, jumladan turar joyni ko'zdan kechirish va turar joy egasi bilan uchrashishda yordam berib boradi.

Turar joy egasi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar.

Agar siz turar joy egasidan (jismoni shaxs) o'zingizga mos keluvchi variantni topgan bo'sangiz, u Sizga shu turar joyga egalik qilish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarning asl nusxalarini (mulkka bo'lgan huquqning davlat ro'yxatidan o'tganligi haqida guvohnoma, turar joy oldi/sotdi shartnomasi va boshqalar) ko'rsatishi lozim. Agar fuqaro turar joy egasi bo'lmasdan uning nomidan ishonchnoma orqali harakat qilayotgan bo'lsa, u turar joy egasidan olingan o'ziga turar joyni ijaraga berish huquqini beruvchi ishonchnomani, hamda o'z pasporti ma'lumotlari va turar joy egasi ma'lumotlarini taqdim etishi shart.

Turar joy variantlarini izlash usulidan qat'iy nazar ijaraga olingan turar joyga ko'chib kirishda yollash (ijara) shartnomasi tuzish lozim bo'lib, u 2 nusxada tuziladi va bir nusxasi albatta Sizda qolishi lozim.

**Siz o'zingizning ijaraga olingan turar joyda yashashingiz uchun
quyidagi 2 hujjat asos bo'lishini aniq tushunishingiz lozim:**

- 1 - turar joyni yollash (ijara olish) shartnomasi;**
- 2 - Sizning ijaraga olingan turar joy manzilida muhojirlik
hisobiga qo'yilganligingiz haqida xabarnoma..**

Maslahat:



Qalloblardan ehtiyyot bo'ling – turar joyni yollash (ijara olish) shartnomasini imzolamasdan va uning nusxasini olmasdan hech kimga pul bermang.

Rossiyada yashash

Tibbiy yordam



Rossiyada vaqtinchalik bo'luvchi va ishlamaydigan chet el fuqarolari (ham viza tartibida va ham vizasiz tartibda kelgan) ixtiyoriy tibbiy sug'urta (ITS) dasturi doirasida chet el fuqarolari uchun tibbiy polisni rasmiylashtirishlari lozim yoki o'z mablag'lari hisobidan davolanish uchun pulto'lashlari lozim bo'ladi.

Diqqat!

BVaqtinchalik kelgan va ishga joylashgan chet el fuqarolari majburiy ravishda ITS polisini sotib oladilar!

Har kim o'zi mustaqil ITS polisini xarid qilish qarorini qabul qiladi. Lekin bu yerda bir-ikki holatlarni inobatga olish lozim:

- ITS polisi patent olish uchun majburiydir;
- ITS polisisiz davolanish uchun qilingan barcha xarajatlarni chet el fuqarosi o'zi to'laydi, jumladan shifokor qabuli, tahlillar topshirish, biror tashxis tadbiridan o'tish, statcionarda bo'lish uchun to'lovlar – bu esa kichik mablag' emas!

Diqqat!

ITS polisi narxi unga kiradigan xizmatlar to'plamiga qarab shakllantiriladi.

Amal qiluvchi qonunchilik chet el fuqarosi quyidagi minimal xizmatlarni o'z ichiga oluvchi ITS polisiga ega bo'lishini talab qiladi:

- + tez shoshilinch yordam ko'rsatish;
- + tibbiyot muassasasiga shoshilinch ravishda transportirovka qilish;
- + statcionarda parvarishlash xizmatlari;
- + shoshilinch stomatologik yordam.

Ko'pgina kompaniyalarda bunday turdag'i allakay tayyor
ITS polisini xarid qilish imkonи ko'zda tutilgan.

Agar qo'shimcha xizmatlar kerak bo'lsa, boshqa sug'urta to'plamini sotib olish mumkin (masalan: tug'ish, stomatologiya, repatriatsiya va boshqalar).

Maslahat:



Sizga ITS polisini bergen sug'urta tashkiloti telefon raqami va nomini albatta eslab qoling – agar Siz o'z polisingizni yo'qotib qo'y sangiz, sug'urta kompaniyasiga murojaat etib uni qayta tiklashningiz yoki shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish zarurligi holatida uning rasmiylashtirilganligini tasdiqlashingiz mumkin. Sug'urta polisidan nusxa ko'chirib olsangiz uni yo'qotganingizda foydadan xolis bo'lmaydi.



Turli mamlakatlar va mintaqalar, qishloq va shahar aholisi bir-biridan o'zlarining xulq-atvori, kiyimi, odatlari, madaniy an'analari bilan farq qilib turadi.

Bu farqiyatlar turli xalqlar vakillarida o'z madaniyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini bilmaganliklari bois tushunmovchiliklarni vujudga keltirishi mumkin.

Rossiya aholisining aksariyat qismi shaharlarda yashaydi va shaharchasiga xulq-atvor va muloqot qilish madaniyatiga riox qiladi. Bu kuzatishlar Sizga Rossiya madaniyatida qabul qilingan muhim axloq prinsiplarini tushunishda va Rossiya shahrida o'zligingizni topishda yordam beradi.

Rossiyada mahalliy aholi uchun odat bo'lgan jamiyat joylarida o'zini tutish va atrofdagilar bilan muloqot qilish qoidalari amal qiladi:

- xushmuomala bo'lish;
- tajovuzkorlik qilmastik, janjallli vaziyatlarga iloji boricha yo'l qo'ymaslik;
- har bir kishiga diqqat bilan qaramaslik va uning shaxsiy fazosini buzmaslik;
- transport va jamiyat joylarida kattalarga joy berish;
- transportda beadab ovqat eyish yoki baland ovozda gapirish, ko'chada spirtli ichimliklar ichish, axlatlar tashlash;
- hamkasblar va qo'shnilar bilan tez-tez muloqotda bo'lish, tanishlaringizni bayramlar bilan tabriklashni unutmang, hatto o'zingiz bu bayramni nishonlamayotgan bo'sangiz ham;
- bolalarni o'z tengdoshlari va qo'shnilar bilan muloqot qilishga rag'batlantrish;
- jamiyat joylarida qabul qilingan kiyim formasiga riox qilish.





Rossiyaliklarning ko'pchiligi o'zlarining xayrxohligi, murakkab vaziyatda yordam berishga, savollarga javob berishga tayyorligi bilan ajralib turadi. Rossiyada tezroq o'z o'rningizni topishingiz uchun mahalliy aholi bilan ko'proq muloqot qilishni, ular bilan do'stlashishni, bayramlarga qatnashishni, kino, muzeylar, teatrlar, kutubxonalarga borishni, rus tilini o'rganishni tavsiya qilamiz.

Sobiq SSSR mamlakatlari aholisini juda ko'p narsa birlashtiradi.

Eng avvalo, biz umumiy tarixga egamiz: rossiyaliklar SSSR xalqlarining Ulug' Vatan urushida ko'rsatgan jasoratlariga juda katta hurmat bilan munosabat qiladilar, Sovet Armiyasi askarlari va front orti mehnatkashlari qahramonliklarini ulug'laydilar. Mamlakatlarimiz uchun ko'p hollarda umumiy bo'lgan oilaviy tarixiy xotiraga diqqat-e'tibor bilan munosabat qilish og'a-inichilik va do'stona munosabatlar uchun mustahkam asos bo'lishi mumkin.





1. Kamchatka o'lkasi Muhojirlarni ijtimoiy adaptatsiya qilish markazi

683032, Petropavlovsk-Kamchatskiy sh.,
Maqsutov k., 42, kab. № 9 (1 qavat)
tel.: 8(4152) 42-62-85



2. Rossiya IIV Kamchatka o'lkasi Boshqarmasining

Muhojirlilik masalalari boshqarmasi

683024, Petropavlovsk-Kamchatskiy sh.,
Oktyabr 50 yilligi xiyoboni, 23/2

Mehnat muhojirligi masalalari bo'limi

683032, Petropavlovsk-Kamchatskiy sh.,
Maqsutov k., 42
tel.: 8(4152) 41-05-95, 41-00-80
sayt: 41.mvd.ru



3. Rossiya IIV Muhojirlilik masalalari Bosh boshqarmasi rasmiy saytining axborot xizmatlari

sayt: гувм.мвд.рф

– (servis. гувм.мвд.рф – chet el fuqarolari uchun servislar



4. Kamchatka o'lkasi mehnat va kadrlar potensialini rivojlantirish vazirligi

683003, Petropavlovsk-Kamchatskiy sh.,
Leningradskaya k., 72

– muhojirlilik siyosati bo'limi

tel.: 8(4152) 42-78-36, 41-28-45,
sayt: kamgov.ru
elektron manzil: agzanyat@kamgov.ru





5. Kamchatka o'lkasi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, yoshlar va axborot siyosati vazirligi

683040, Petropavlovsk-Kamchatskiy sh., Lenin mayd., 1

- milliy diasporalar faoliyati masalalari bo'yicha

tel.: 8(4152) 42-47-75, 42-19-20

sayt: kamgov.ru

elektron manzil: avp@kamgov.ru



6. "Pasport-viza xizmati" Federal davlat

unitar korxonasining Kamchatka o'lkasidagi filiali

683032, Petropavlovsk-Kamchatskiy sh., Maqsutov k., 42 uy.

tel.: 8(4152) 42-80-15, 42-80-17, 42-80-18

сайт: kamchatka.pvsmvd.ru

elektron manzil: kamchatka@pvsmvd.ru



7. Rossiyada ishslash: mustaqil ravishda ish izlash uchun

Mehnat va bandlik federal xizmatining umumrossiya bo'sh ish joylari bazasi

sayt: www.trudvsem.ru



8. Mustaqil ravishda ish izlash uchun Kamchatka o'lkasi Aholi

bandligi xizmatining Interaktiv Portali

sayt: rabota.kamgov.ru



9. YAgona davlat xizmatlari portalı

sayt: www.gosuslugi.ru



10. Kamchatka o'lkasi davlat va munisipal xizmatlar portalı

sayt: gosuslugi41.ru



2021

Январь						
Пн	Вт	Ср	Чт	Пт	Сб	Вс
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28
29	30	31				

Февраль						
Пн	Вт	Ср	Чт	Пт	Сб	Вс
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28

Март						
Пн	Вт	Ср	Чт	Пт	Сб	Вс
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28
29	30	31				

Апрель						
Пн	Вт	Ср	Чт	Пт	Сб	Вс
1	2	3	4	5	6	7
12	13	14	15	16	17	18
19	20	21	22	23	24	25
26	27	28	29	30		

Май						
Пн	Вт	Ср	Чт	Пт	Сб	Вс
3	4	5	6	7	8	9
10	11	12	13	14	15	16
17	18	19	20	21	22	23
24	25	26	27	28	29	30

Июнь						
Пн	Вт	Ср	Чт	Пт	Сб	Вс
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
14	15	16	17	18	19	20
21	22	23	24	25	26	27
28	29	30				

Июль						
Пн	Вт	Ср	Чт	Пт	Сб	Вс
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28
29	30					

Август						
Пн	Вт	Ср	Чт	Пт	Сб	Вс
2	3	4	5	6	7	8
9	10	11	12	13	14	15
16	17	18	19	20	21	22
23	24	25	26	27	28	29
30	31					

Сентябрь						
Пн	Вт	Ср	Чт	Пт	Сб	Вс
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12		
13	14	15	16	17	18	19
20	21	22	23	24	25	26
27	28	29	30			

Октябрь						
Пн	Вт	Ср	Чт	Пт	Сб	Вс
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28
29	30					

Ноябрь						
Пн	Вт	Ср	Чт	Пт	Сб	Вс
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28
29	30					

Декабрь						
Пн	Вт	Ср	Чт	Пт	Сб	Вс
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
13	14	15	16	17	18	19
20	21	22	23	24	25	26
27	28	29	30	31		

1-10 yanvar — Yangi yil ta'tili;

7 yanvar — Rojdestvo bayrami;

23 fevral — Vatan himoyachilar kuni;

8 mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni;

1 may — Bahor va mehnat bayrami;

9 may — G'alaqa kuni;

1 iyun — Xalqaro bolalarni

himoya qilish kuni;

12 iyun — Rossiya kuni;

1 iyul — Kamchatka o'lkasi tashkil topgan kun;

22 avgust — Rossiya Federatsiyasi Davlat bayrog'i kuni;

1 sentyabr — Bilimlar kuni;

4 noyabr — Milliy birlik kuni;

12 dekabr — Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi kuni.

